

BOSHQARUV JARAYONI MAQSADLARI VA UNGA QO'YILADIGAN  
TALABLAR

Dedajanov Baxtiyor Nabijanovich

Namangan muhandislik-texnologiya instituti "Menejment" kafedrasи dotsenti, i.f.n.

Nurullayeva Shaxrizoda Isroilxon qizi

Namangan muhandislik-texnologiya instituti "Menejment" yo'nalishi talabasi

**Annotatsiya:** Boshqaruv jarayoni samaradorligi ko'p omillarga bog'liq bo'lib, asosiyalaridan biri maqsad hisoblanadi. Maqolada boshqaruv jarayoni mohiyati va belgilanadigan maqsadlari, hamda boshqaruv maqsadlariga qo'yiladigan talablar yoritilgan. Boshqaruv maqsadlarini belgilashdagi ayrim muammoli masalalar ko'rsatib o'tilgan. Boshqaruv jarayonida qo'yiladigan maqsadlarni to'g'ri belgilash uchun tegishli tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** boshqaruv jarayoni maqsadi, ko'zlangan natijalarga erishish, maqsadning ilmiy asoslanganligi, boshqaruv maqsadiga qo'yiladigan asosiy talablar, imkoniyatlaridan oqilona foydalanish, faoliyatini maqsadli amalga oshiriga qaratish, sifat menejmenti tizimini takomillashtirish

### Kirish

Iqtisodiyotni barqaror va samarali rivojlantirish borasida amalga oshirib kelinayotgan islohotlar tufayli, qisqa vaqt ichida iqtisodiyotda chuqur tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatishni rivojlantirish, aholi daromadlarining o'sishini ta'minlash, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasini barqaror rivojlantirish, bank-moliya tizimi faoliyatini mustahkamlash, ilmiy loyihalarni ishlab chiqishda ahamiyatli yutuqlar qo'lga kiritildi.

Shundan kelib chiqqan holda, korxonalar iqtisodini rivojlanishida asosiy omillardan biri – boshqaruv jarayonidir. Bugungi kunda korxonalarda mehnat salohiyatini boshqarish, ulardan samarali foydalanish hozirgi zamonga mos boshqaruvni talab etmoqda. Korxona boshqaruvida xodimlarning soni, salohiyati, shakllanishi, rivojlanib borishi, tarkibiy qismi muhim ahamiyat kasb etib, shularga xos bo'lgan maqsadlarni shakllantirishni taqazo etadi.

Boshqaruv jarayoni mazmunining uch jihatini ajratish mumkin: texnikaviy, ishlab chiqarish, iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan bu - mahsulot ishlab chiqarish, ya'ni naqlik, foydalik ko'rishni boshqarishdir. Texnikaviy jihatdan – bu mahsulot ishlab chiqarishni boshqarish, ishlab chiqarishda - bu ishlab chiqarishni tashkil etish jarayoni, ya'ni bo'linma, tsex, korxonalar o'zaro ta'sirini boshqarish, iqtisodiy jihatdan ishlab chiqarish, ish kuchi va butun iqtisodiy munosabatlар tizimiga rahbarlik qilish, ijtimoiy jihatdan - bu mehnat jamoasi ijtimoiy ehtiyojlarini qondirish, insonni tarbiyalashdir.

# "INTEGRATION, EVOLUTION, MODERNIZATION: WAYS OF DEVELOPMENT OF SCIENCE AND EDUCATION"

Demak, boshqaruv jarayoni rahbar va boshqaruv apparatining qo'yilgan maqsadlarga erishish uchun kishilarning birgalikdagi faoliyatini muvofiqlashtirish bo'yicha maqsadli xarakat qilishidir.

Yuqoridagilardan shuni hulosa qilish mumkinki, hozirgi kunda boshqaruv jarayoni samaradorligiga erishish uchun maqsadlarni to'g'ri qo'yish va ularni oqilona bajarilishi dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

## **Asosiy qism**

Boshqaruv faoliyatini amalga oshirish tartibiga ko'ra uni quyidagi *bosqichlarga* bo'lish mumkin: maqsad, vaziyat, muammo, qaror qabul qilish. Har bir harakatni amalga oshirishdan avval uning maqsadi aniqlanishi lozim, chunki boshqaruv ma'lum maqsadga erishish uchun amalga oshiriladi. Boshqaruvning keyingi bosqichi boshqaruv jarayonidagi vaziyatni tahlil etishdan iborat. U tizimning holatini baholash, uni yaxshilash yo'llarini izlash yoki undagi salbiy hislatlarni bartaraf qilish bilan bog'liq ishlarni tavsiflaydi. Muammo bosqichida tizimning hozirgi holatining uning rivojlantirish maqsadiga nisbatan u qarama-qarshiliklarini aniqlash ko'zda tutiladi. Qaror qabul qilish bosqichi rahbarning amalda tashkiliy faoliyatiga o'tishini ifodalab, qaror qabul qilish bilan boshqariladigan tizimga ta'sir o'tkazila boshlanadi.

Shuningdek, boshqaruv jarayonini quyidagi *davrلarga* bo'lish mumkin: maqsadni belgilash, axborot tahlili, tahliliy faoliyat, boshqaruv tizimida tashkiliy amaliy faoliyat va xarakat variantlarini tanlash.

Boshqaruv jarayonini tashkil etishda maqsadlarni to'g'ri qo'yish alohida ahamiyatga ega.

**Maqsad** - bu muddao, murod, ya'ni u yoki bu niyatga erishmoq uchun ko'zda tutilgan mushtarak orzu. Maqsad insonlarga xos bo'lib, uni kelajakning loyihasi deb ta'riflash mumkin. Ehtiyoj, manfaat, motiv individ yoki ijtimoiy guruh xulq-atvori, faoliyatining muhim tarkibiy qismlari bo'lsa, maqsad faoliyat yo'nalishini belgilovchi elementdir. Maqsadning shakllanishiga sub'ektning ehtiyoj va manfaatlari kuchli ta'sir o'tkazadi. Aynan, shu maqsad kishi faoliyatini, o'z orzularini ushalishiga yo'naltiradi. Umumiy vazifalardan aniq maqsadlarni belgilash muvaffaqiyatga erishishga yordam beradigan aniq ish rejalariga o'tish yordam beradi.

Boshqaruv maqsadi, ko'zlangan natijalarga erishish uchun talab etiladigan kuch-g'ayratni va tashkiliy harakatlarni o'z ichiga qamrab olishi lozim. Biz dastlab o'zimizning oldimizda turgan maqsadimizni aniqlab olamiz, so'ngra esa shu maqsadimiz:

- bo'lajak harakatlarimizni oldindan aniqlab beradi;
- faoliyatimizning ustuvor yo'nalipshni belgilaydi;
- faoliyatimizni aniq sohaga, ishga yo'naltiradi;
- u yoki bu faoliyatimizning zarurlik darajasini belgilab beradi;
- pirovard natijamizning baholash me'yorini belgilaydi va hakazo.

Maqsadning ilmiy asoslanganligi va to'g'ri belgilanganligi boshqaruv uchun juda muhimdir. Chunki aynan shu maqsadga binoan:

**"INTEGRATION, EVOLUTION, MODERNIZATION:  
WAYS OF DEVELOPMENT OF SCIENCE AND EDUCATION"**

–boshqarish funksiyalari;  
–boshqarish usullari va uslublari;  
–boshqarishning tuzulmaviy tarkibi;  
–lavozimlarni belgilash va kadrlarni tanlash kabi muhim masalalar hal etiladi.  
Boshqaruv maqsadi quyidagi talablarga javob berishi lozim.

### **1-jadval**

#### **Boshqaruv maqsadiga qo'yiladigan asosiy talablar**

<b>Nº</b>	<b>Talablar</b>	<b>Mazmun-mohiyati</b>
1	Maqsad bir ma'noli va aniq bo'lishi kerak	Agar qayoqqa borishni bilmasangiz, u holda biror yo'lni tanlashga ham hojat qolmaydi.
2	Maqsad real va bajarilishi mumkin bo'lishi kerak	Maqsad bu navbatdagi bosqichda "jang" bilan zabit qilinadigan bamisoli cho'qqidir. Buni zinhor unutmaslik darkor shu "jang"da g'olib chiqish uchun bajarilishi mumkin bo'lgan real maqsadni o'z oldimizga qo'yishimiz kerak.
3	Maqsad miqdoran o'lchovga ega bo'lishi kerak	Miqdoran o'lchovga, me'yorga ega bo'limgan maqsad - bu sarob.
4	Maqsad barcha bajaruvchilarga tushunarli bo'lmog'i darkor	Quyilgan maqsadni pirovard natijasi bajaruvchilarga tushunarli bo'lishi va sodda tilda yetkazilishi kerak.
5	Maqsad bo'limlar va mas'ullar bo'yicha detallashtirilgan bo'lishi kerak	Maqsad har bir faoliyat turi, har bir mas'ul shaxs bo'yicha batafsil taqsimlab chiqilgan bo'lishi lozim. Shundagina bu maqsadga erishish darajasi yuqori bo'ladi va uni nazorat qilish osonlashadi.
6	Maqsad ko'p qirrali bo'lishi kerak	Bu - umumiy, bosh maqsadning xususiy va yakka maqsadlarga bo'linishini, ya'ni "Maqsadlar shajarasi"ni tuzishni talab qiladi.

Demak, boshqaruv maqsadiga qo'yiladigan talablar shuni anglatadiki, ko'zlangan maqsadga erishish uchun korxona barcha imkoniyatlaridan oqilona foydalanishga, tadbirkor bo'lishga, o'zining moliyaviy ko'rsatkichlari va ish faoliyatini maqsadli amalga oshiriga qaratishni nazarda tutadi.

Har qanday maqsadning samaradorligi erishilgan natijaga to'g'ri baho berilishiga va uni rag'batlantirish darajasiga bog'liq. Agar erishilgan natijaga adolat yuzasidan baho berish va uni tegishli ravishda rag'batlantirish odat tusiga kirgan bo'lsa, u holda bu korxonada o'rnatilgan boshqarish ravnaq topib boraveradi.

Biroq boshqaruv jarayonida maqsadlarni belgilashda ayrim muammoli holatlar mavjudki, bu boshqaruv samaradorligini pasaytirishga to'g'ridan-to'g'ri

## "INTEGRATION, EVOLUTION, MODERNIZATION: WAYS OF DEVELOPMENT OF SCIENCE AND EDUCATION"

ta'sir ko'rsatadi. Maqsadlarni belgilashda quyidagi masalalarga e'tiborga to'g'ri qaratilmasligi asosiy *muammolami* shakllanib qolishiga sabab bo'ladi:

- ayrim paytlarda miqdor uchun ishlashga moyillikni kuchayib ketishi, iste'molchilarni sifatli va raqobatbardosh mahsulot (xizmat)lar bilan ta'minlashni susayishi;
- buyurtmachi va ta'minlovchilar bilan o'zaro manfaatli munosabatlar o'rnatishni rivojlantirishga zaruriyatni oshib borishi;
- boshqaruv tizimi samaradorligini uzluksiz ravishda rivojlantirish ustida ishlashga e'tibor berishni sustlashishi;
- sifat menejmenti tizimini doimiy ravishda takomillashtirish bo'yicha sifatni boshqarish mutaxassislariga talabni yuqoriligi.

Korxona umumiy maqsadining samaradorligi yakka, ya'ni har bir xodim maqsadining qanchalik to'g'ri aniqlanganligi va samarali ado etilganligiga bog'liq bo'ladi. Shu sababli har bir xodim oldiga qo'yiladigan maqsadga nisbatan quyidagi talablar qo'yildi: xodim maqsadi yuqori bo'g'indagi bo'limlar maqsadiga bo'ysunishi, unga mos bo'lishi kerak.

### Xulosa va tavsiyalar

Boshqaruv jarayonida maqsadlarga qo'yiladigan talablardan kelib chiqib quyidagi xulosalarni qilishimiz mumkin:

1. Boshqaruv jarayoni maqsadi bu – boshqaruv erishishi lozim bo'lgan oxirgi natijadir.
2. Maqsadlarni belgilashda joriy maqsadlar nuqtai-nazaridan yondoshuv, ya'ni har bir bo'linma maqsadlari, ularni bajarish muddatlari, aniq ijrochilar, aniq maqsadli tadbirlar, resurslar manbalari, belgilangan tadbirlar bajarilishining asoslab berilishi barcha bo'g'inlar va darajalarda boshqaruv ishonchligini oshirish kafolatini beradi.
3. Boshqarish jarayonida bir martalik maqsadlarga ham zaruriyat bo'lib, bunday maqsadlar, odatda, korxona uchun kutilmagan, favqulodda vujudga kelgan muammoni yechish uchun o'rta qo'yildi.
4. Boshqaruv jarayonida innovatsion maqsadlar ham belgilanib, bu yangi mahsulotni ishlab chiqarish, yangi texnologiyani joriy qilish bo'yicha qo'yiladigan maqsadlar hisoblanadi.
5. Boshqaruv jarayoni maqsadlarini belgilashda maqsadning tobeligi bo'ladi. Maqsadning tobeligi - maqsadni qo'yish va uni amalga oshirishning mavjud shart-sharoitlarga bog'liqligi, yoxud strategik maqsadning qator taktik maqsadlarga, istiqbolli maqsadning esa o'rta va qisqa muddatli maqsadlarga bog'liqligi, bir maqsadning boshqa maqsadga bo'ysunishidir.

Boshqaruv jarayonida maqsadlarni to'g'ri qo'yish va samarali bajarilishi uchun quyidagilarni *tavsiya* etamiz:

1. Maqsadning o'zaro munosabat (bog'lanish)da bo'lishi, bunda maqsad sifati uning muhimligi jihatidan tartiblanishi lozim. Maqsadning bu jihatida barcha

# "INTEGRATION, EVOLUTION, MODERNIZATION: WAYS OF DEVELOPMENT OF SCIENCE AND EDUCATION"

lokal, xususiy va yakka maqsadlarni ustuvorligi bo'yicha tartiblash, shuningdek mazkur maqsadlarni amalga oshirish bo'yicha aniq amaliy tadbirlarni ishlab chiqish kerak.

2. Belgilanayotgan maqsadlar umumjamiyat miqyosidagi munosabatlarni aks ettirishi kerak. Maqsadning o'zaro munosabat (bog'lanish)da bo'lisligi uchun uning muhimligi jihatidan tartiblanishi lozim. Maqsadning bu jihatni barcha lokal, xususiy va yakka maqsadlarni ustuvorligi bo'yicha tartiblash, shuningdek mazkur maqsadlarni amalga oshirish bo'yicha aniq amaliy tadbirlarni ishlab chiqishni o'z ichiga olishi darkor.

3. Boshqaruv maqsadi mukammal bo'lishi uchun boshqaruvning barcha darajalarida - hududiy boshqarish maqsadlari, mamlakat maqsadlari, viloyat maqsadlari, tuman maqsadlari, qishloq maqsadlari, ishlab chiqarish maqsadlari, tarmoq (sektor) maqsadlari, korxona (firma) maqsadlari va yakka shaxs maqsadi bir-biriga uyg'unlikda hamda bir-birini to'ldirgan holda ishlab chiqilishi kerak.

4. Boshqaruv jarayonini zamonaviy talablar asosida tashkillashtirishda istiqbolli maqsadlarni belgilashga alohida e'tiborni qaratish lozim. Shuningdek istiqbolli maqsadlar ijtimoiy-iqtisodiy tizimning o'zgarishi, tashqi va ichki omillarning ta'sirini inobatga olgan holda uzluksiz o'rganilib borishi lozim.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Dedajanov B.N. "Menejment". Darslik. –Toshkent.: "Fan ziyosi" nashriyoti, 2022. – 580 b.
2. Dedajanov, B. N., & Kholmirzaeva, K. H. (2021). Managerial Effectiveness: Content, Evaluation and Recommendations. *Account and Financial Management Journal*, 6(5), 2318-2323. <https://doi.org/10.47191/afmj/v6i5.01>
3. Dedajanov, Bahtiyor, and Muhammadniyoz Sobirov. "The essence of innovative activity and analysis indicators." *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal* 11.3 (2021): 1978-1990. [https://scholar.google.com/scholar?hl=ru&as\\_sdt=0%2C5&q=THE+ESSENCE+OF+INNOVATIVE+ACTIVITY+AND+ANALYSIS+INDICATORS%00&btnG=#d=q\\_s\\_qabs&u=%23p%3Dm7smCiRf3KwJ](https://scholar.google.com/scholar?hl=ru&as_sdt=0%2C5&q=THE+ESSENCE+OF+INNOVATIVE+ACTIVITY+AND+ANALYSIS+INDICATORS%00&btnG=#d=q_s_qabs&u=%23p%3Dm7smCiRf3KwJ)  
[https://search.crossref.org/?from\\_ui=&q=Managerial+effectiveness%3A+content%2C+evaluation+and+recommendations](https://search.crossref.org/?from_ui=&q=Managerial+effectiveness%3A+content%2C+evaluation+and+recommendations)
4. Lutfulla Xabibullayevich Ubaydullayev, & Bakhtiyor Nabijanovich Dedajanov. (2021). THE DIGITAL ECONOMY: ADVANTAGES AND RISKS. *Journal of Central Asian Social Studies*, 2(01), 153-159. <https://doi.org/10.37547/jcass/volume02issue01-a23>
5. Nabijanovich, D. B. (2022). INNOVATIVE ACTIVITY MANAGEMENT ISSUES. *Journal of Pharmaceutical Negative Results*, 3744-3755.

6. Nabijanovich, D. B., & Mamasodikjonovich, M. A. (2021). OBSTACLES TO IMPLEMENTATION AND STRATEGY FORMULATION MANAGEMENT STRATEGY IN BUSINESS AND ISSUES OF ITS FORMATION. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 9(10), 758-770.

7. БН Дедажанов, ФИ Эргашева ПРОБЛЕМЫ ПОДДЕРЖКИ И СТИМУЛИРОВАНИЯ ПРЕДПРИЯТИЙ-ЭКСПОРТЕРОВ И ПУТИ ИХ ПРЕОДОЛЕНИЯ ВЕСТНИК РОССИЙСКОГО ЭКОНОМИЧЕСКОГО УНИВЕРСИТЕТА имени ГВ ПЛЕХАНОВА. ВСТУПЛЕНИЕ. ПУТЬ В НАУКУ № 3 (27) 2019.

[https://www.rea.ru/ru/org/managements/izdcentr/Documents/%E2%84%96%203%20\(27\)%202019.pdf#page=24](https://www.rea.ru/ru/org/managements/izdcentr/Documents/%E2%84%96%203%20(27)%202019.pdf#page=24)

